

Akvarel bilan chizamiz



Akvarel suvda eriydigan bo'yoqlardir. "Akvarel" so'zi lotincha **aqua** so'zidan olingan bo'lib, "suv" degan ma'noni anglatadi. Suv mo'yqalam yordamida bo'yoq yuzasiga tushganida, rangli kukun "jonlanadi" hamda mayin va shaffof bo'yoqqa aylanadi. Shuning uchun ham akvarelda chizilgan rasmlardan go'yo nur sochilayotgandek ko'rinadi. Akvarel bo'yoqlari juda nafisligi sababli ushbu ranglar xuddi osmondagi bulutlar kabi biridan boshqasiga silliqqina o'tadi.

Akvarel qanday ishlaydi:

- ishni avval och tusli ranglardan boshlab, asta-sekin to'qrog'iga o'ting;
- suv qancha ko'p bo'lsa, rang shuncha ochroq bo'ladi;
- suv quriganidan so'ng, qog'ozda rangning yupqa qatlami qoladi;
- agar bir rangning ustidan boshqasini surtsangiz, ular bevosita qog'ozning o'zida aralashib, yangi turdagi rang hosil qiladi.

Akvarel bo'yoqlari bilan ishlash qoidalar:

- ish joyingizni taxt qilib oling;
- akvarel bilan ishlash uchun pishiq qog'ozdan foydalaning;
- mo'yqalamni to'g'ri ushlang;
- bo'yoqlarni suv bilan suyultiring;
- bo'yoqni surtgandan keyin u to'liq quriguncha kuting.



Akvarelda **shilliqqurt** rasmini chizing.

Rasm chizish bosqichlari:

1. **Avval shilliqqurtning** tanasi, boshi va shoxchalarini chizing.
2. **Chig'anoqni chizing**: katta doira chizib, uning ichiga esa spiral shaklini tushiring va bezak uchun naqshlar qo'shing.
3. **Akvarel bo'yoqlari bilan bo'yang**: bunda turli rang jilolaridan foydalanib, ularning bir-biriga silliq o'tishini ta'minlang.
4. **Fon va mayda detallarni qo'shing**: buning uchun ingichka mo'yqalamdan foydalaning.

1



2



3



4



5

